



Pedagogical principles of developing professional competence

Khavokhon ABDULLAEVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

competence,
pedagogy,
modernization,
globalization process,
pedagogical principle,
psychological approach,
innovative development.

ABSTRACT

The article discusses the analysis of the current higher education system and the identification of principles for modernizing education. It also highlights the pedagogical aspects of globalization and internationalization, forecasting and practical application, marketization, standardization, regionalization, and axiologization. Higher education is not only significant in terms of modernization but also holds great importance from the perspective of reforms and innovative development.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp210-214>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik tamoyillari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

komponentlik,
pedagogika,
modernizatsiyalash,
globallashtirish jarayoni,
pedagogik tamoyil,
psixologik yondashuv,
innovatsion rivojlanish.

Maqolada hozirgi kunda oliy ta'lim tizimini tahlil qilish, ta'limni modernizatsiyalashning tamoyillarini aniqlash xususida so'z boradi. Shuningdek, globallashtirish va internallashtirish, bashorat qilish va amaliyotda qo'llash, marketlashtirish, standartlashtirish, hududlashtirish hamda aksiologizatsiyaning pedagogik tomonlari ko'rsatib o'tilgan. Oliy ta'lim faqat modernizatsiya bilan cheklanmay, islohotlar va innovatsion rivojlanish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

¹ Senior Lecturer, Andijan State University.

Педагогические принципы развития профессиональной компетентности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

компетентность, педагогика, модернизация, процесс глобализации, педагогический принцип, психологический подход, инновационное развитие.

В статье проводится анализ современной системы высшего образования и определяются принципы её модернизации. Освещаются педагогические аспекты глобализации и интернационализации, а также вопросы прогнозирования, практического применения, маркетинга, стандартизации, регионализации и аксиологизации. Высшее образование рассматривается не только с точки зрения модернизации, но и как важнейшая сфера реформ и инновационного развития.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o'quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o'z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Jamiyat tomonidan pedagogik faoliyatga nisbatan e'tibor va e'tirofni ortishi va zamonaviy, yosh kadrlarni jamiyat va faoliyatga sho'ng'ish jarayonlarini samaradorligini oshirish yo'lida kompetensiya, pedagogik kompetensiya tushunchalari mohiyati va mazmuni bilan talabalar hamda kadrlar auditoriyasini kengroq qamrab olish hozirgi kun uchun ahamiyatlidir.

Shaxsning umumiy va kasbiy rivojlanishining birligi insoniyat taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, uning mohiyati faqat ta'lim olish jarayoni bilangina chegaralanmaydi. Bu tamoyil talabalarining bilimlarni egallashi, umumiy va maxsus qobiliyatlari, fazilatlarini hamda malakalarini rivojlantirish, shuningdek, olingan bilim va ko'nikmalarni kasbiy faoliyatga moslashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish – bu ularda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir. Ushbu jarayon pedagogik va psixologik tamoyillar asosida olib boriladi. Asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir talabaga individual tarzda yondashish, uning qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim – nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish.
- Motivatsiyani shakllantirish – talabalarining o'qishga va kelajakdagi kasbga qiziqishini oshirish.
- Kasbiy yo'naltirish – talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish, ularning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kasbiy tayyorgarlik – bu talabalarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, mehnat faoliyati yoki kasb sohasi bo'yicha aniq va ongli qaror qabul qilishni o'zida ifodalaydi. Kasbiy moslashtirishni bo'lajak mutaxassisda pedagogik

faoliyatga ehtiyojni shakllantiruvchi, unga mas’uliyatli va ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi va shaxsga yo’naltirilgan jarayonlarning o’zaro integratsiyasi sifatida tasavvur qilish mumkin.

Kasb tushunchasi – bu maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan, inson tomonidan doimiy ravishda amalga oshiriladigan va uning hayotini ta’minlash manbaiga aylanuvchi faoliyat turi. Kasb, bir xil faoliyat bilan shug’ullanuvchi insonlarni birlashtirib, ular o’rtasida ma’lum aloqalar va axloqiy normalarni shakllantiradi. E.A. Klimovning tadqiqotlariga ko’ra, kasb – bu jamiyat uchun zarur va qadrli bo’lgan soha bo’lib, unda insondan jismoniy hamda ruhiy kuch talab etiladi. V.G. Makushinning fikriga ko’ra, kasb – bu shunday faoliyat turi bo’lib, uning orqali shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va hayot uchun zarur moddiy vositalar manbai sifatida xizmat qiladi. Mavjud ta’riflarni umumlashtirgan holda shunday xulosa qilish mumkin: kasb – bu mehnat faoliyatining asosiy shakli bo’lib, uni muvaffaqiyatli bajarish uchun inson ma’lum bilim, malaka va ko’nikmalar, shuningdek, maxsus qobiliyatlar va rivojlangan kasbiy sifatlarga ega bo’lishi zarur.

Mutaxassislik – bu kasbiy ta’lim va tayyorgarlik jarayonida egallanadigan maxsus bilimlar, ko’nikmalar va malakalar yig’indisidir. U ma’lum bir kasb doirasida ish faoliyatini amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, mutaxassislik – kasb doirasidagi muayyan faoliyat turi bo’lib, u shaxsning individual yutuqlari yoki maxsus sharoitlar asosida umumiy maqsadlarga erishishga qaratilgan. Kasbiy faoliyatning samarali amalga oshirilishi uchun muhim shartlardan biri mutaxassisning kasbiy tayyorgarligidir. Mashhur rus psixologi I.K. Platonov bu holatni “kasbiy tayyorgarlik – shaxsning zarur kasbiy faoliyatni bajarishga qodir ekanligini his qilishi va bunga tayyor deb o’zini baholashining subyektiv holati” deb ta’riflaydi. E. Seytxalilov, B. Raximov va N. Azizxodjayev “kasbiy tayyorgarlik – bu shaxsga muayyan kasbiy faoliyat turi bilan shug’ullanish imkoniyatini beradigan nazariy bilimlar, ko’nikmalar va malakalarni o’zlashtirish jarayoni” sifatida izohlaydilar. R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A. Pardayev esa kasbiy tayyorgarlikning asosida “bo’lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarligi” yotishi kerakligini ta’kidlashadi.

Talabalarni oliy ta’lim muassasasi sharoitiga moslashtirishda quyidagi jihatlar alohida ta’kidlanishi kerak:

Talabalarda moslashuv jarayoni murakkab dinamikaga ega bo’lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatlarning o’zaro uyg’unlashishini talab etadi;

1. Talabalar uchun o’qishning birinchi, ba’zan esa ikkinchi yili murakkab vaziyatlar bilan birga o’tadi.

2. Oliy ta’lim muassasasida tahsil olish jarayonida talabalarda o’z-o’zini anglash tuyg’usi rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatli munosabatlar tizimi shakllanadi;

3. Talabalarda bazaviy o’quv ustanovkalari rivojlanadi;

4. Talabalik yillari tashkiliy, metodik va psixologik tavsiflarga ega bo’lib, shaxsning kasbiy va shaxsiy moslashuvining eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Pedagogik va kasb ta’limiga doir adabiyotlarda “kasbiy yo’nalganlik” tushunchasi quyidagi mazmunlarni anglatadi:

1) “Kasbiy yo’nalganlik” – shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo’lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat’iy ishonchi (A.B.Seyteshev);

2) “Kasbiy yo’nalganlik” – kasb tanlash, qiziqish, qat’iy ishonch va kasb tanlash motivlari o’rtasidagi aloqaning shaxsiy sifatlarda yetakchilik qilishi (N.K. Stepankova).

Motiv tushunchasi psixologik adabiyotlarda (lotincha *movere* – harakatga keltirmoq) ma'lum ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantiruvchi sabab sifatida izohlanadi. Kasb tanlash murakkab va motivatsion jarayon bo'lib, shaxsning to'g'ri kasb tanlashi uning hayotdan qoniqishini va ijtimoiy mavqeini aniq belgilab olishiga olib keladi. Tadqiqotchi olim E.S. Chugunova ish joyi va kasbni tanlash motivlari klassifikatsiyasini ishlab chiqib, kasbiy faoliyatning sabablarini aks ettiruvchi kasb tanlash motivlarini quyidagicha ta'riflaydi:

Dominant motiv: kasbga bo'lgan qiziqishning ustunligi;

- Vaziyatga bog'liq motiv: har doim insonni qiziqtirib kelgan shart-sharoitlarni amalga oshirish;

- Komformist motiv: boshqa kasbiy motivatsiyalar, ya'ni o'ziga yaqin ijtimoiy olam, yaqinlari, do'stlari va tanishlarining maslahatlari bilan.

Kasbiy imkoniyatlar – bu ma'lum faoliyatning shaxs irodasi bilan bog'liq ob'ektiv shart-sharoitlarini aks ettiradi. Odatda, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning obyektiv imkoniyatlarini hisobga olish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga mos shaxs imkoniyatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'qituvchilik kasbini tanlashda nafaqat ushbu kasbga bo'lgan muhabbat, bolalar bilan mulqot qilish istagi, balki kasbiy faoliyatning shaxsga qo'yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur. Bu esa kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam beradi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda ushbu masalaning nazariy asoslarini ishlab chiqish va bo'lajak mutaxassislarining kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga dastlabki tayyorligi, ayni paytdagi amaliy tayyorgarligining asosini tashkil etadi. Shuning uchun, ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish muhimdir.

Kasbiy bilim – bu aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar va o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlarning yig'indisidir. Bo'lajak o'qituvchilarning o'zlashtirishi kerak bo'lgan kasbiy bilimlar mutaxassis shaxsining sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablar asosida belgilanishi, kasbiy moslashtirish jarayonining samaradorligini aniqlovchi muhim mezon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan sifat talablarini o'z ichiga olgan klassifikator orqali bo'lajak o'qituvchilarning umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar va OTMlarda faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozimligi belgilanadi. Zero, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasini amalga oshiruvchi bilimlar tizimi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2023-y., 03/21/683/0375- soni.

2. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida||gi qarori.

3. Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономотопеи на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза //корееведение в России: направление и развитие. – 2022. – т. 3. – №. 4. – с. 61- 66.

4. Ibragimova G.N. Interfaol ukitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. – T.: –Fan va texnologiyalar||, 2016. – B. 77.

5. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodlari to'plami: amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston milliy universiteti, 2003. -94-b.

6. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentlik. Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini ta'minlashning integrativ texnologiyalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU, 2010. – B. 114-118.